# QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko‘plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko‘plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko‘maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko‘rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxona va tashkilotlar to‘g‘risidagi mazkur ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.*

# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*

| | | |
|---|---|---|
| Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar | 37 758 | 121,3 % |
| Faoliyat ko‘rsatayotgan | 36 168 | 119,8 % |
| Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yil yanvar-dekabr) | 9 747 | 164,8 % |

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)*



# Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni

*(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha*
*2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*

**16 739**
Mas’uliyati cheklangan jamiyat

**4 235**
Oilaviy korxona

**117**
Unitar korxona

**9 657**
Xususiy korxona

**43**
Aksiyadorlik jamiyati

**539**
Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar  holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, yanvar- dekabr oylarida)*





# Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar

*(1- yanvar holatiga koʻra, birlikda)*



**Jami faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 38,8 foizga oshdi**


















# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*





*Jami faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan* ***16,3*** *foizga oshdi*









**288**



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**4 351**



Ishlab chiqarish sanoati

**32**



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

**56**



Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 4 727 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 16,3 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko‘payishining asosiy omili (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 17,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,0 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 10,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,1 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash – 6,7 % ga (jami sanoat-dagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish o’zgarishsiz (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) o‘sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



*Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan* **2,5** *foizga oshdi*




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



**2,4**
*foizga oshdi*




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar



**8,4**
*foizga oshdi*




## Oilaviy korxonalar



**10,5**
*foizga oshdi*




## Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni






## Xususiy korxonalar






## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*




2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3 371 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 3,0 % kamaygan (jami qurilishdagi ulushi 66,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 5,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 19,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 25,0 %) o'sishidir.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*

2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 10 073 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,0 % ga oshdi. Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 36,2 % ga (jami savdodagi ulushi 72,8 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 10,9 ga (jami savdodagi ulushi 19,5 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 31,5 % ga (jami savdodagi ulushi 7,6 %) o'sishidir.



# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*





*Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan* ***30,0*** *foizga oshdi*




## *Kichik tadbirkorlik subyektlari soni*



***30,2*** *foizga oshdi*




## *Mikrofirmalar*




## *Kichik korxonalar*




## *Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar*



***34,8*** *foizga oshdi*




## *Oilaviy korxonalar*



***2,7*** *martaga oshdi*




## *Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni*



*O‘tgan yilga nisbatan* ***25,8*** *foizga oshdi*




## *Xususiy korxonalar*







***10,2*** *foizga oshdi*



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



*Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan* ***11,9*** *foizga oshdi*




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



**18,4**
foizga oshdi




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar



**24,8**
foizga oshdi




## Oilaviy korxonalar



**45,9**
foizga oshdi




## Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni






## Xususiy korxonalar




**10,7**
foizga oshdi



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*

- Sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat

**737**

- Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash

**19**

- Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

**14**

## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




**118**

Yashash bo‘yicha xizmatlar



**1 626**

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar

2022- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 744 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 23,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar – 22,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,2 %), yashash bo‘yicha xizmatlar 37,2 % ga oshgan (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,8 %) o‘sishidir.

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




*Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan* ***23,2*** *foizga oshdi*




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



***23,4*** *foizga oshdi*




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar




***31,8*** *foizga oshdi*




## Oilaviy korxonalar



***36,4*** *foizga oshdi*




## Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni







## Xususiy korxonalar




*O‘tgan yilga nisbatan* ***11,6*** *foizga oshdi*



# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*





*Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan* ***26,2*** *foizga oshdi*




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni






## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar



***33,1*** *foizga oshdi*




## Oilaviy korxonalar



***1,8*** *martaga oshdi*




## Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni






## Xususiy korxonalar






***12,9*** *foizga oshdi*



# Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



***Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,9 foizga oshdi***




## *Kichik tadbirkorlik subyektlari soni*



**1,5** foizga oshdi




## *Mikrofirmalar*




## *Kichik korxonalar*




## *Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar*



**4,6** foizga oshdi




## *Oilaviy korxonalar*






## *Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni*






## *Xususiy korxonalar*








# Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*

**32 584**
ro‘yxatdan o‘tgan

- **1 243** kichik korxonalar
- **31 341** mikrofirmalar

**31 152**
faoliyat ko‘rsatayotgan

- **1 232** kichik korxonalar
- **29 920** mikrofirmalar

**9 463**
2021- yil yanvar-dekabrda yangi tashkil etilgan

- **22** kichik korxonalar
- **9 441** mikrofirmalar

## Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Oilaviy korxonalar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




Tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra 4 546 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2 169 taga yoki 1,9 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 235 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 929 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 587 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 520 taga yoki 2,4 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

## Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra 17 343 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3 767 taga yoki 27,7 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 222 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3 517 taga yoki 26,6 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 838 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 501 taga yoki 45,0 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra 245 tani tashkil etib, ulardan 237 tasi yoki 96,7 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 20 taga yoki 8,9 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oy- larida viloyatimizda 33 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan.

## Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



| | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|---|---|
| **Jami** | **54** | **85** | **192** | **225** | **245** |
| *shu jumladan:* | | | | | |
| **Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | 3 | 9 | 28 | 40 | 50 |
| **Sanoat** | 37 | 51 | 102 | 116 | 113 |
| **Qurilish** | 1 | 3 | 10 | 11 | 13 |
| **Savdo** | 9 | 12 | 27 | 32 | 41 |
| **Tashish va saqlash** | 1 | 2 | 4 | 5 | 4 |
| **Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar** | - | 4 | 10 | 8 | 9 |
| **Axborot va aloqa** | 1 | 1 | 3 | 1 | 1 |
| **Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish** | - | - | 3 | 4 | 6 |
| **Boshqa turlar** | 2 | 3 | 5 | 8 | 8 |

# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni

*(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



| | Jami | *shundan:* | |
|---|---|---|---|
| | | Qo‘shma korxona | Xorijiy korxona |
| **Qashqadaryo viloyati** | **237** | **162** | **75** |
| **G‘uzor** | **11** | 8 | 3 |
| **Dehqonobod** | **15** | 11 | 4 |
| **Qamashi** | **13** | 9 | 4 |
| **Qarshi** | **17** | 11 | 6 |
| **Koson** | **23** | 14 | 9 |
| **Kitob** | **17** | 11 | 6 |
| **Mirishkor** | **7** | 5 | 2 |
| **Muborak** | **9** | 5 | 4 |
| **Nishon** | **17** | 13 | 4 |
| **Kasbi** | **8** | 5 | 3 |
| **Chiroqchi** | **12** | 10 | 2 |
| **Shahrisabz** | **6** | 3 | 3 |
| **Yakkabog‘** | **14** | 8 | 6 |
| **Qarshi sh.** | **61** | 46 | 15 |
| **Shahrisabz sh.** | **7** | 3 | 4 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahrida 61 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 25,7 %), Koson 23 ta (9,7 %), Kitob 17 ta (7,2 %), Qarshi 17 ta (7,2 %), Nishon 17 ta (7,2 %), Dehqonobod 15 ta (6,3 %), Yakkabog‘ 14 ta (5,9 %) va Qamashi tumanlarida 13 ta (5,5 %) tashkil etadi.

# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahri (19,8 %), Chiroqchi (8,3 %), Koson (7,7 %), Kitob (7,2 %), Qarshi (7,2 %), Qamashi (6,8 %), Yakkabog‘ (6,8 %), Shahrisabz shahri (5,6 %), G‘uzor (5,0 %), Shahrisabz (4,9 %), Dehqonobod (4,6 %), Kasbi (4,5 %), Nishon (4,4 %), Mirishkor (3,8 %) va Muborak (3,4 %) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

*(2021- yil yanvar- dekabr oylarida, birlikda)*

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Qarshi shahrida (16,1 %), Chiroqchi (8,5 %), Qamashi (8,0 %), Kitob (7,8 %), Yakkabog‘ (7,7 %), Koson (7,2 %), Qarshi (6,4 %), G‘uzor (5,7 %), Kasbi (5,4 %), Shahrisabz shahri (5,4 %), Shahrisabz (5,3 %), Mirishkor (4,4 %), Nishon (4,4 %), Dehqonobod (4,3 %) va Muborak tumani (3,5 %) ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




## Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Qarshi shahrida (23,8 %), Koson (10,7 %), Qamashi (8,5 %), Chiroqchi (7,5 %), Yakkabog‘ (7,2 %), Qarshi (6,1 %), Kasbi (5,2 %), Mirishkor (5,0 %), Kitob (4,8 %), Nishon (4,5 %), Muborak (4,1 %), G‘uzor (4,0 %), Shahrisabz shahri (3,8 %), Shahrisabz (3,1 %) va Dehqonobod tumani (1,6 %) hissalariga tegishli.

## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo‘shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*




2017- 2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning uchinchi muhim yo‘nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o‘sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo‘yicha soni

*(2021- yilning yanvar- dekabr oylarida, birlikda)*




2021- yilning yanvar- dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Chiroqchi (13,1 %), G‘uzor (13,1 %), Qarshi tumani (12,9 %), Shahrisabz (12,6 %), Qarshi shahri (11,0 %), Kitob (9,1 %), Mirishkor (5,5 %), Koson (5,2 %), Dehqonobod (4,8 %), Muborak (3,3 %), Shahrisabz shahri (2,5 %), Yakkabog‘ (2,5 %), Qamashi (2,2 %), Nishon (1,4 %), Kasbi tumanida (0,8 %) ulushlarini qayd etadi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(2021- yilning yanvar- dekabr oylarida, birlikda)*




*O‘tgan yilga nisbatan % da*



## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.




Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo‘mitasining **www.stat.uz** va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining **www.qashstat.uz** rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

**Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi**
**Statistik registrlarni**
**yuritish bo‘limi**
**Tel.:(75) 221-17-93**